

ABU BAKR MUHAMMAD ZAKARIYYO AR-ROZIYNING “FAYLASUFLARNING HAYOT TARZI” HAQIDAGI QARASHLARI

To'ychiyeva Nargiza Ro'ziboyevna

O'zbekiston Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti falsafa fani o'qituvchi
tuychiyevanargiza7@gmail.com +99899 768-10-85

Annatsiya: Ushbu maqola Abu Bakr Muhammad Zakariyyo ar-Roziyning “Falsafiy hayot tarzi” asariga tayangan holda mutafakkirning faylasufning mohiyati, axloqiy yetuklik va to'g'ri yashash tamoyillari haqidagi qarashlarini tahlil qiladi. Asarda ar-Roziyning Suqrot hayotiga bildirilgan tanqidlarga munosabati, uning falsafaga bo'lgan chuqur qiziqishi, axloqiy poklik va aql -idrok bilan boshqariladigan hayot tarziga doir fikrlari yoritiladi. Shuningdek muallif tomonidan baxtli hayot, ma'naviy kamolot, ilm va haqiqatni egallash, insoniy fazilatlarini tarbiyalash hamda bu dunyoning o'tkinchi ne'matlarga berilmaslik kabi masalalar falsafiy nuqtai nazaridan asoslab beriladi. Maqola ar-Roziy ta'kidlaganidek, insonning o'z amali, odati va fe'l-atvori orqali haqiqiy falsafiy hayot tarziga erisha olishi hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish g'oyasini ilgari suradi.

Kalit so'zlar: Falsafiy hayot tarzi, davlatmandlik, dag'al, axloq nazariyotchisi, axloqiy ta'limot, falsafiy meros, faylasuf.

Key words: Philosophical lifestyle, statesmanship, brute, moral theorist, moral teaching, philosophical heritage, philosopher.

Mavzuning dolzarbligi. Abu Bakr Muhammad Zakariyyo ar-Roziy o'rta asr Sharqining (865-935) yirik axloq nazariyotchilaridan biridir.

Uning “Ruhiy tabobat”, “Falsafiy hayot tarzi”, “Baxt, iqbol va davlatmandlik haqida” kabi asarlari mavjuddir.

Uning “Falsafiy hayot tarzi” asarini olmon olimi Paul Kraus arab tilidan faransuz tiliga tarjima qilib, 1939 yilda nashr ettirgan. Biz o'z maqolamizda bu asarga asoslanib “Falsafiy hayot tarzi” haqida Roziy fikrlarini tahlil etishni maqsad qilib qo'ydik.

Ar-Roziy ushbu asarlarida Suqrotning hamma faylasuflar ustozlari deb e'tirof etadi va uning hayotini ideal turmush tarzi sifatida tavsiflaydi. O'ylaymizki, bu o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi.

Bu asarda ar-Roziy Suqrotning tanqid qilganlarga nisbatan e'tirozlar bildiradi. Suqrotning muxoliflari uni quyidagi holatlar bo'yicha tanqid qilishgan. Birinchidan, ularning ta'kidlashicha:



“– Suqrot umuman qirollikda ishlamagan, qirol yoki zodagonlar bilan, avom va xalq bilan yuzma-yuz bo'lmagan, hashamatli uylarda emas, balki cho'lda, kulbada yashagan, farzandsiz bo'lgan, bazmlarda qatnashmagan, oddiy kiyimlarda yurgan.

U maxfiy ishlar bilan shug'ullanmagan bo'lsada, o'z so'zini ochiq-oydin, aniq qilib isbotlab bera olgan. Bizningcha, (deyishadi)- biz mutlaqo qarama-qarshi yo'lda turibmiz”¹².

Bu fikrlarga qarama-qarshi o'laroq ar-Roziy shunday javob beradi:

“Suqrot haqidagi gaplar to'g'ri. Rostdan ham u shunga o'xshash narsalar bilan shug'ullangan. Biroq ular ba'zi bir ma'lumotlarni atayin bizga qarshi asos bo'lishi uchun tushirib qoldirishgan. Faoliyatining boshlanishi esa falsafaga nisbatan katta qiziqish, barcha vaqtini shunga sarflash, o'zini fanga baxsh etish bilan izohlanadi. Yana shuni aytib o'tish kerakki, uning tabiiy (temperamenti) mezoni shunga berilib, ko'nikib ketgan edi. Bir maqolda “Barcha yangi(lik) narsalar o'ziga tortadi” deyishganidek, yangi hodisalarga bo'lgan kuchli qiziqish odamni har xil yo'lga solishi mumkin, keyinchalik hammasi iziga tushib ketadi.”¹³

Suqrot bilan bizni ajratib turadigan farq axloq yuzasidan bo'lib, bizningcha bu sifatga oid emas, balki faqatgina miqdoriy darajadir. Bu kichik farq bilan biz xech qanday e'tiborni, hurmatni yo'qotmaymiz, chunki bu haqiqat. Haqiqatni tan olish esa albatta, maqtovga sazovor yaxshi fazilat. Bu masalaga bizning javobimiz shu.”¹⁴

Ikkinchidan, uning muholiflari Suqrot falsafasining kamchiliklarini ham sanab o'tishgan. Ular bu yo'nalish Suqrot falsafasi tabiatga, xususan, taraqqiyot va insoniyat naslini saqlashga qarshi ekan, ushbu yo'l dunyoning buzilishiga, vayron bo'lishiga va insoniyat naslining yo'q bo'lib ketishiga olib boradi, deb ta'kidlaydilar.

Ar-Roziy bu tanqidga quyidagicha javob beradi: “Bunda miqdornigina tanqid etishga haqlidirlar, ammo sifatni emas. Chunki o'z-o'zidan ma'lumki, “Ruhiy tabobat” kitobimizda keltirib o'tganimizdek, oliy xulq-atvor ehtirolslarga berilib, qizishib ketishdan iborat emas. Ba'zan kerakli darajasidagi qiziqishlar doirasi bilan chegaralanishga to'g'ri keladi.”¹⁵

Mutafakkir “Falsafiy hayot tarzi” asarida Suqrot muholiflarining fikrini tanqid qilishi orqali, faylasuf qanday inson bo'lishi kerak, degan masalani o'rta tashlaydi. Bu masalaga u axloqiy qarashlarini bayon qilish orqali javob beradi. Mutafakkir “Falsafiy hayot tarzi” asarida yashashning maqsadi va mohiyati haqidagi quyidagicha fikr yaratadi:

“Biz uchun o'limdan keyin 2 ta holat mavjud: baxtli va baxtsiz holat. Bu esa ruhimiz tanamizni egallagandan boshlab o'zimizni tutishimiz, hulq-atvorimizga bog'liq.

¹² Paul Kraus “Le Livre de la Condiute du Philosoph” 1939.p.g 322 (tarjima bizniki)

¹³ Paul Kraus “Le Livre de la Condiute du Philosoph” 1939.p.g 323 (tarjima bizniki)

¹⁴ Paul Kraus “Le Livre de la Condiute du Philosoph” 1939.p.g 324 (tarjima bizniki)

¹⁵ Abu Bakra ar-Razi “Duxovnaya meditsina” Dushanbe, Irfon, 1990 19-21 str.





Biz keying hayotimiz uchun zamin tayyorlab borishimiz kerak. Bu esa, hayot paytimizdagi yaxshi amallarni ko'paytirishimiz, jamiyatga o'rnak bo'la oladigan inson bo'lishimiz kerak, demakdir.

Xulosa:

Mutafakkir fikricha, ana shu qoidalarga muvofiq ravishda biz o'z hayotimizni tashkil etamiz.

Yuqorida keltirilgan qoidalar nafaqat faylasuflar uchun, balki hamma insonlar uchun amal qilish zarur bo'lgan me'yorlardir.

Ularga amal qilinsa qilinsa, falsafiy hayot tarzi barhayot davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Paul Kraus "Le Livre de la Condiute du Philosoph" 1939.p.g 322
2. Abu Bakra ar-Razi "Duxovnaya meditsina" Dushanbe, Irfon, 1990 19-21 str.

